



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 03 | pp. 182-187 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI



Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li

TDIU, tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada ishlab chiqarish quvvatlari tushunchasiga ilmiy-uslubiy jihatdan yondashuvlar, ishlab chiqarish quvvatini sanoat korxonalari uchun ahamiyati borasida xalqaro va mahalliy olimlarning nazariy qarashlar, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish uslubiyotiini ilmiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish quvvatlari tushunchalarini olimlar qarashlaridan kelib chiqqan holda taqqoslama tahlil qilingan va samarali foydalanish bo'yicha muallif tavsiyalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ishlab chiqarish tushunchasi, ishlab chiqarish quvvati, tarmoq va sohalar, tarmoqlar raqobatbardoshligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish quvvatlarining ma'naviy va moddiy eskirishi.

Аннотация. В статье представлены научно-методические подходы к концепции производственных мощностей, теоретические взгляды международных и отечественных ученых на значение производственных мощностей для промышленных предприятий, рекомендации по научному совершенствованию методологии использования производственных мощностей. Также проведен сравнительный анализ концепций производственных мощностей на основе взглядов ученых и даны авторские рекомендации по их эффективному использованию.

Ключевые слова: концепция производства, производственная мощность, отрасли и секторы, конкурентоспособность отраслей, эффективное использование производственных мощностей, моральное и материальное устаревание производственных мощностей.

Annotation. The article presents scientific and methodological approaches to the concept of production capacities, theoretical views of international and local scientists on the importance of production capacities for industrial enterprises, recommendations for scientific improvement of the methodology for the use of production capacities. Also, a comparative analysis of the concepts of production capacities based on the views of scientists is carried out and the author's recommendations for their effective use are given.

Keywords: the concept of production, production capacity, industries and sectors, competitiveness of industries, effective use of production capacities, moral and material obsolescence of production capacities.

1. Kirish

Jahonda ro'y berayotgan global siyosiy vaziyat hozirda barcha davlatlarning shiddat bilan tashqi va ichki bozor talablariga moslashishni, mavjud imkoniyatlarni ishga

solish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yaratish orqali yuqori samaradorlikka erishish talabini belgilab quymoqda.

Har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti bevosita tarmoq va sohalar rivoji yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasiga bog'liq. Raqobat muhiti sharoitida respublikamizning iqtisodiy tayanchi hisoblangan tarmoq va sohalarni barqaror rivojlantirish asnosida iqtisodiy o'sishni ta'minlashga erishishdan iborat. Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikka erishishda sanoat korxonalarida mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda faqat yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan davlatlarga dunyo bozorida o'z mavqeiga ega bo'lmoqda. Iqtisodiyotning barcha sohalarida yuqori samaradorlikka erishish – kelgusida islohotlarimizning bosh mezoni bo'lishi shart. 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollardan oshirish uchun eng to'g'ri yo'l – barcha sohalarni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazishdir. Bu – kelgusi yillarda iqtisodiy taraqqiyot strategiyamizning asosiy yo'nalishi bo'ladi" [1].

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillar, xususan: tarmoq va sohalarda shiddatli raqobatning kuchayishi, innovatsion mahsulotlarning bozorga tez kirib kelishi, texnik-texnologik modernizatsiyalashning jadallashuvi, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining ma'naviy va moddiy eskirish sur'atlarining ortishi, "Aqlli" texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilinishi, ishlab chiqarishda avtomatlashtirish va robototexnologiyalarning jadal joriy etilishi, iste'molchilarning yangi turdagi mahsulotlarga talabining o'zgarishi, iste'molchilar hulq-atvoridagi o'zgarishlar ta'siri ortib bormoqda.

2. Adabiyotlar sharhi

Sanoat korxonalarini barqaror rivojlanishida ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish quvvatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish borasida xorijiy olimlar tomonidan nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Shu jihatdan, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishda mamlakatimiz va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlarining fan rivojiga qo'shgan nazariy va uslubiy yondashuvlarini ilmiy jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq.

Xorijlik olimlardan Marvin B.Lieberman tomonidan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning determinantlarini o'rgangan bo'lib, sanoatda quvvatdan foydalanish kapital intensivligi va talab o'sishi tendensiyasi bilan ijobiy bog'liq holda talab o'zgarishiga qarab foydalanish jihatlarini turli modellar asosida tadqiq qilgan [2].

Xitoylik Bingyao Xie, Chao Yang, Weiming Song, Linshu Song, Hao Wang kabi tadqiqotchilar o'z izlanishlarida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratgan ya'ni, "Xitoy ishlab chiqarish sanoatida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ikkita omilga asoslanadi, texnik samaradorlik va uskunalardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Tadqiqotlar asosan atrof-muhitni tartibga solishning mavjud quvvatlaridan foydalanish va

unga ta'sir etuvchi mexanizmlar empirik tadqiqotlar o'tkazish orqali amalga oshirilgan" [3].

MDH iqtisodchi olimlaridan V.D.Gribov, V.P.Gruzinov, V.A. Kuzmenkolar o'z darsligida korxonalarining ishlab chiqarish quvvati tushunchasining ta'rifini quyidagicha keltirib o'tgan "korxonaning ishlab chiqarish quvvati – belgilangan vaqt birligi ichida (yil, sutka, smena) ishlab chiqarish dasturida ko'zda tutilgan nomenklatura va assortiment doirasida, ishlab chiqarish uskunalaridan to'liq foydalanishni, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish va mehnatni zamonaviy tarzda tashkil etish hamda mahsulotning yuqori sifatini ta'minlashga qaratilgan holda yuqori hajmda mahsulot ishlab chiqarishga asoslanadi" [4].

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, manbalarni guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar

Sanoat korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy jihatdan barqarorligi korxonalarda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanishga bevosita bog'liq. Korxonalarda asosiy vositalarning bevosita ishlab chiqarishda ishtiroki mavjud bo'lgan qismi ishlab chiqarish quvvatini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish darajasiga ega bo'lish esa bu har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy salohiyatini belgilab beradi. Shu jihatdan, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishning ahamiyati va unga quyilgan talab hajmi bozor kon'yukturasidan kelib chiqqan holda ortib boradi. Bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarini nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy jihatlarini tadqiq qilish, ilmiy yondashuvlarni taqqoslashda xorijiy mamlakatlar olimlarining ilmiy manbalari katta ahamiyatga ega. Shu bois, korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishda sanoat korxonalarini infratuzilmasining mavjudligi, korxonaning iqtisodiy salohiyati, sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsion aloqalar, talab va taklifning ta'siri, tarmoq korxonalarida innovatsion o'zgarishlar, modernizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, ishlab chiqarish quvvatlarini boshqarish va strategik rejalashtirish borasida olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy-ilmiy yondashuvlar umumlashtirilgan holda 1-jadvalda keltirib o'tilgan.

Yuqoridagi 1-jadvalda klassik olimlarning nazariy yondashuvlari keltirib o'tilgan bo'lib, o'z davrida ilmiy-tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilarning nazariy qarashlari turlicha talqin qilingan. Korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni uchta asosiy yondashuvga bo'lgan holda ko'rib chiqildi, ya'ni: ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning nazariy yondashuvlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni ekonometrik baholash yondashuvi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini boshqarish yondashuvlarini nuqtai-nazardan tadqiq qilindi.

1-jadval

Korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tadqiqotchilarning nazariy yondashuvlari

№	Ilmiy yondashuv turlari	Mualliflar	Ta'riflar
1.	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish nazariyasi	<i>Adam Smit</i>	Korxonada mehnatni ratsional taqsimlash ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.
		<i>David Rikardo</i>	Korxonada ishlab chiqarish jarayonida kapital va resurslarning oqilona taqsimlanishi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshiradi.
		<i>Jon Moris Klark</i>	Bozordagi talab va taklifning o'zgarishi tufayli ko'pgina korxonalari ba'zi hollarda mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining ma'lum qismini zahira holatida saqlab turishga sabab bo'ladi.
		<i>Jon Styuart Mill</i>	Sanoatga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish bevosita ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytirish va ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.
		<i>Edvard Chamberlin</i>	Monopolistik raqobat muhiti sharoitida bozor kon'yukturasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish qarorlarining o'zgarishi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasiga ta'sirini asoslab bergan.
		<i>Alfred Marshall</i>	Korxona ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali mavjud asbob-uskunalar, mehnat va infratuzilmadan samarali foydalanilish ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshiradi.
2.	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni ekonometrik baholash	<i>Deyl Jorgenson</i>	Korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishda mablag'lar kirimi va mehnat unumdorligini baholashning ekonometrik yondashuvlarini ishlab chiqqan.
		<i>Jonatan Berndt</i>	Korxonada ishlab chiqarish funksiyalari to'g'ri belgilash asnosida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini baholash usullarini taklif etgan.
		<i>Jey Xayzer, Barri Render</i>	Korxonada ishlab chiqarishni rejalashtirish va talabni prognoz qilish orqali ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini optimallashtirishni asoslab bergan.
3.	Ishlab chiqarish quvvatlarini boshqarish	<i>Naydjel Slek</i>	Korxonaning ishlab chiqarish tizimida ishlab chiqarish quvvatlarini boshqarishda "moslashuvchanlik" muhimligini tadqiq qilgan.
		<i>Ketrin Morrison</i>	Korxonada ishlab chiqarish quvvatlarini baholashda texnik quvvat va iqtisodiy quvvat tushunchalarini keng tadqiq qilgan.
		<i>Robert A. Wild</i>	Korxonalarda strategik boshqaruv va ishlab chiqarishni to'g'ri rejalashtirish ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni ta'minlashga sabab bo'ladi.

Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.

N.N.Bondarning “Ekonomika predpriyatiya” nomli darsligida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvati tushunchasi quyidagicha ta’riflangan bo’lib, unga ko’ra, “Korxonaning ishlab chiqarish quvvati bu belgilangan nomenklatura va turli assortimentdagi mahsulotlar, turli ishlab chiqarish uskunalari va ishlab chiqarish maydonlaridan to’liq foydalangan holda ma’lum bir vaqt birligida ishlab chiqarishning maksimal imkoniyatlariga erishish” deb ta’riflagan. Shuningdek, N.N.Bondar ishlab chiqarish quvvatini uchta asosiy farqini keltirib o’tgan: loyihaviy quvvat, joriy quvvat va zahiraviy quvvatlardan iborat [5].

T.K.Rutkauskas rahbarligida tayyorlangan “Ekonomika organizatsii (predpriyatiya)” nomli o’quv qo’llanmasida “Korxonaning ishlab chiqarish quvvati – belgilangan reja asosida mavjud ishlab chiqarish uskunalari va maydonlaridan to’liq foydalangan holda ilg’or texnologiya va mehnatni samarali tashkil etish usullarini qo’llagan holda vaqt birligi ichida mahsulot ishlab chiqarishning maksimal imkoniyatini ta’minlash” deb ta’riflangan [6].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan B.O.Tursunov tomonidan berilgan ta’rifga ko’ra, “Ishlab chiqarish quvvatlari – u iqtisodiy resurslardan oqilona foydalangan holda ma’lum vaqt davomida (bir oy, yil) ilg’or texnologiyalarni qo’llash asosida, mavjud dastgoh va maydonlarda ishlab chiqarish mumkin bo’lgan sifatli mahsulotlarning maksimal miqdoridir. Korxonaning ixtisoslashganligi va mahsulotning alohida turlari o’rtasidagi o’zaro nisbatiga ko’ra aniqlanadi” [7].

B.O.Tursunovning fikrlariga qo’shilgan holda aytish joizki, har qanday korxonada mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish bevosita ilg’or texnologiyalarni samarali joriy etishga ham bog’liq. Shu jihatdan, korxonalarda mavjud quvvatlarni ishga solish va uni tarmoq ishlab chiqarishiga qarab yo’naltirish ham muhim ahamiyatga ega.

Korxonalarni boshqarishda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish borasida tadqiqotlar olib borgan M.I.Karimova ushbu masalaga alohida yondashgan bo’lib, “Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish borasida korxona resurslarining moddiy-texnik, mehnat va innovatsion salohiyatini o’zaro uzviy bog’liq va uyg’un holda boshqarish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni tashqi bozor sharoiti, texnologik rivojlanish va ichki tashkiliy o’zgarishlarga mos ravishda dinamik tarzda optimallashtirish imkoniyatlari” deb ta’riflagan [8].

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish – bu asosan korxonalarda mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining amalda qay darajada ishga tushganligini ifodalovchi iqtisodiy jarayon bo’lib, ishlab chiqarish hajmining maksimal mumkin bo’lgan darajaga nisbati orqali ifodalanadi. Har qanday sanoat korxonasining ishlab chiqarish quvvatini asosiy ishlab chiqarish fondlarining umumiy faoliyatdagi hajmi va ulardan foydalanish darajasi belgilab beradi.

4. Xulosa va takliflar

Xulosa o’rnida aytish joizki, MDH va mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida keltirib o’tilgan nazariy-uslubiy yondashuvlarga qo’shilgan holda mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi va quyidagicha yondashildi: “Ishlab chiqarish quvvati – bu sanoat korxonasining mavjud moddiy-texnik bazasi, mehnat resurslari, tashkiliy-texnologik imkoniyatlar integratsiyasi asosida belgilangan vaqt oralig’ida, bozor

talablariga mos nomenklaturada mahsulot ishlab chiqarishning yuqori barqaror va iqtisodiy jihatdan maqbul hajmini ta'minlash qobiliyatini ifodalovchi kompleks iqtisodiy ko'rsatkichdir".

Olib borilgan izlanishlar va yuqoridagi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning fikrlaridan xulosa qilish mumkinki, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bois, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishda quyidagilarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

- sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlari hisoblangan barcha turdagi resurslarni korxonaga jalb qilingan kundan boshlab uni nazorat qilish;
- ishlab chiqarish quvvatlariga yuklamalarni to'g'ri taqsimlash;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni tartibga solish;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish me'yorlarga amal qilish;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish jarayonini monitoring qilib borish;
- raqobat sharoitida talab va taklif omillarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishga erishish;
- bozor konyukturasiga mos ravishda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan xalqaro standartlar asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga erishishdan iborat.

5. Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025-yil. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. Marvin B.Lieberman. Capacity utilization: Theoretical models and empirical tests. European Journal of Operational Research. Volume 40, Issue 2. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0377221789903275>
3. Bingyao Xie, Chao Yang, Weiming Song, Linshu Song, Hao Wang. The impact of environmental regulation on capacity utilization of China's manufacturing industry: An empirical research based on the sector level. Ecological Indicators. Volume 148, April 2023, 110085.
4. Грибов В.Д., Грузинов В.П., Кузенько В.А. Экономика организации (предприятия): учебник/ В.Д.Грибов, В.П.Грузинов, В.А.Кузенько. – 10-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2016. – 122-123 стр.
5. Бондарь Н.Н. Экономика предприятия. Учеб.пособие для студентов. – К.: МАУП, 2007. – 73-74 стр.
6. Руткаускас Т.К. и другие. "Экономика организации (предприятия)" учебное пособие. – 2-е изд., Екатеринбург: Изд-во УМЦ УПИ, 2018 - 87-88 стр.
7. Турсунов Б.О. Ўзбекистонда тўқимачилик корхоналарида ишлаб чиқариш қувватларидан самарали фойдаланиш масалалари. "Иқтисодиёт ва инновациялар" илмий электрон журнали. №5, сентябрь-октябрь, 2017 й. www.iqtisodiyot.uz
8. M.I.Karimova. Korxonalarni boshqarishda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish (qurilish sanoati materiallari korxonalari misolida). 08.00.13-Menejment, 08.00.03-Sanoat iqtisodiyoti. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Namangan-2025. 59-bet.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

